


Yangi hayot uchun, Yangi O‘zbekiston uchun!



Iyun
2024-yil, №71
ISSN 2010-7889



O'QISHGA QABUL QILISH JARAYONINING MAS'ULIYATI

Dunyodagi ko'pgina mamlakatlarda hozir kadrlar tayyorlashdagi milliy va mintaqaviy raqobatbardoshlikni yanada oshirish va mustahkamlash masalasi juda muhim masala bo'lib qolmoqda. Oliy ta'limga muassasalarining o'quv-pedagogik va ilmiy-uslubiy rahbarlikni yanada takomillashtirish, mutaxassis kadrlar tayyorlash sifati, ta'limga mazmuni hamda darajasini davlat ta'limga standartlari va malaka talablariga mosligini chiqurlashtirish, ta'limga yangi pedagogik texnologiyalari va o'qitish uslublarini joriy etishning xalqaro amaliyotiga muvofiq tashkil etish, o'quv rejalarini va fan dasturlarini sifat jihatdan modernizatsiya qilish, ta'limga yo'naliishlari va mutaxassisliklarni ishlab chiqarish extiyolarin hisobga olgan holda optimallashtirish, yoshlarni yuksak ma'naviy ruhda tarbiyalash, yot g'oya va mafkuralarga qarshi immunitetni mustahkamlash masalalari yanada muhim o'rinn tutmoqda.

Mazkur dolzorb muammolarni amalga oshirish uchun innovatsion rivojlanishning samarali vositalaridan biri hisoblanmish davlat, biznes, fan va ta'limga o'zaro aniq ta'siri sifatida fan, ta'limga va iqtisodiyotning real sektorlari o'zaro uzviy integratsiyasining eng rivojlangan shakllaridan biri yirik sanoat ishlab chiqarish kompaniyalari, ilmiy tadqiqot institutlari va oliy o'quv yurtlarining intellektual hamda texnologik salohiyatini jamlash, ularni yetakchi kuchga aylantirish uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlashtirish etibor yana da a kuchaytirilmogda. Mazkur holat oliy ta'limga o'qish uchun qabul qilish jarayonining mas'uliyatini oshirish va u bilan bog'liq barcha chora-tadbirlar ijrosini to'liq ta'minlashni talab etayapti.

2024/2025-o'quv yilidan boshlab davlat oliy va professional ta'limga muassasalariga qabul qilish bo'yicha imtihonlar "avval test, so'ng tanlov" tamoyiliga muvofiq bir vaqtga o'tkazilishi ba bunda abituriyentlar o'z tanloviga ko'ra test sinovi natijasida to'plagan balidan kelib chiqib, dastlab oliy ta'limga bakalavriat ta'limga yo'naliishlariga, so'ng professional ta'limga muassasalariga o'qishga kirish uchun tanlovda ishtiroy etishi, davlat oliy ta'limga muassasalarini bakalavriatiga qabul jarayonini ikki bosqichda amalga oshirish belgilandi. Shunga ko'ra, birinchi bosqichda abituriyentlar har yili 5-iyundan 25-iyunga qadar (25-iyun kuni ham) test sinovi topshirish uchun ro'yxatdan o'tadi hamda test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi, ta'limga va test topshirish hududini hamda kirish imtihonlari tarkibida kasbiy (ijodiy) imtihon bo'lsa, ushbu imtihonni topshiradigan davlat oliy ta'limga muassasasini tanlaydi.

Oliy ta'limga, fan va innovatsiyalar vazirining O'z DSt 3557:2021 "Oliy

ta'limga daylat ta'limga standarti. Oliy ta'limga yo'naliishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", "O'zbekiston Respublikasining Davlat standartiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 2024-yil 20-maydag'i 168-sonli buyrug'iga muvofiq Oliy ta'limga yo'naliishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan holda qayta tasdiqlandi. Avvalgi klassifikator ro'yxatida 979 ta'limga yo'naliishlari va mutaxassisliklari bo'lgan bo'lsa, bugungi tasdiqlangan ro'yxatda ularning soni 760 taga qisqargan (22%ga). Mazkur buyruq bilan tasdiqlangan klassifikatorda bu yildan boshlab qabul qilinadigan yo'naliish va mutaxassisliklari ro'yxati tuzib chiqildi.



Toshkent kimyo-tehnologiya instituti tashkil topgan kunidan e'tiboran oliy ta'limga klassifikatoriga kiritilgan ta'limga yo'naliishlari va mutaxassisliklari bo'yicha raqobatbardosh yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda o'quv, fan va ilmiy tadqiqot ishlarini birlgilikda olib borish tamoyillariga amal qilinadi. Shu sababli, kimyo fanlari, plastmassalarni qayta ishlash va polimerlar kimyosi, turli noorganik moddalar, mineral o'g'itlar hamda qurilish materiallarni olish texnologiyasi, kimyoviy texnologiya jarayonlarini avtomatlashtirish, oziq-ovqat mahsulotlarni ishlab chiqarishning ilg'or zamonaviy texnologiyalarini yaratish, ularning fizik-kolloid kimyoviy qonuniyatlarini o'rganish, sellyuloza-qog'oz va boshqa yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini ishlab chiqish bo'yicha Respublikamizda, xatto chet ellarda e'tirof qilingan Ilmiy maktablar hozirgi kungacha samarali faoliyat yuritib kelayapti. Ishlab chiqarishdagi mayjud va yangi quvvatlarni yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash, mazkur sohada ta'limga, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasida o'zaro integratsiyani yo'iga qo'yish, kadrlarni o'qitishning usul va shakllarini yanada takomillashtirish orqali ta'limga sifatini hamda mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga to'g'ridan - to'g'ri keng joriy qilish maqsadida "O'zkimyosoanoat" AJ va "O'zbekneftgaz" AJning ishlab chiqarish korxonalarini, ta'limga, ilmiy tadqiqot hamda kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini

oshirish tashkilotlari bilan birlgilikda yangilangan malaka talablari, o'quv rejalarini, yanada takomillashtirilgan fan dasturlarini ishlab chiqish tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Mazkur faoliyatni olib borishda xorijiy davlatlarda xalqaro ta'limga xizmatlarini ko'rsatish bozoridagi ishtirokini faol qo'llab-quvvatlagan holda yaqindan yondashib kelinayapti. Natijada kelgusi 3-5 yilda bir qator ijobji natijalarga erishish kutilmoqda. Jumladan, 220 nafardan ortiq professor-o'qituvchi va tadqiqotchi, 3 mingdan ortiq talaba va magistrallarni ilg'or korxonalardagi stajirovkasi va amaliyoti tashkil etiladi. Institut professor-o'qituvchilarining ko'p qismi xorijiy mamlakatlarning OTMlariiga malaka oshirish uchun yuboriladi. Shuningdek, 150 nafardan ortiq xodim bakalavriat, 100 nafardan ortiq i magistraturada tahsil olishga jalb etiladi.

Bunda O'zbekiston Respublikasida ilmiy-ta'limga klasterlarini shakllantirish ta'limga rivojlantirish strategiyasi ko'nda utilgan bo'lib, ish beruvchilar ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda kadrlar tayyorlash shakl va usullarini takomillashtirish orqali ta'limga sifatini yanada oshirishdan, qulay raqobat muhitini yaratish, yoshlarni uchun kasb-hunar ta'limga mayjudligini ta'minlash kabi ezgu maqsadlar e'tiborga olingan.

Prezidentimiz va institut rahbariyati tomonidan innovatsion faoliyatni tashkil etishda ko'rsatilayotgan yondashuvlar har qanday hududda xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning yiriklashuvini (konsentratsiyalashuvini) kuchayishiga, ishlab chiqarishni innovatsion taraqqiy etishga yo'naltirish va texnologiyani sifat jihatidan yangi darajalarga erishishga, shuningdek, samoatni tegishli kasb-hunar ta'limga muassasalarini bilan yagona makonda birlashtirishga va ularning faoliyatini kuchayishda ta'limga muassasalarining raqobatbardoshligini yanada oshirishga hamda ta'limga muassasalarini, moliya, ilmiy tadqiqot va korxonalar o'rtaida uzviy integratsiyalashuvga ijobji yordam beradi. Bu esa ishlab chiqarish va ilm-fan integratsiyasini yanada yaqinlashuvni va bog'lanishini ta'minlaydigan ta'limga klasterining nafaqat o'qitish sifatini oshirishga, balki ishlab chiqarish bilan chambarchas hamkorlikda ishslash, raqobatbardosh yuqori malakali va sifatlari kadrlar tayyorlash jarayonlariga jiddiy e'tibor qaratish zarurligini belgilaydi.

**TKTI rektorining o'quv va uslubiy ishlar bo'yicha maslaxatchisi,
prof. Sh.P.Nurullayev va
TKTI Akademik faoliyatni boshqarish
va registrator bo'limi boshlig'i
dots. U.K.Qodirov**

USTOZ MEHRI SHOGIRDLAR QALBIDA

Dunyoda ezgu ishlar ko‘p, lekin ustozlarni xotirlash xalqimizga xos bo‘lgan muhim an‘analardan hisoblanadi. Allomalar va ustozlar martabasi ular qoldirgan ma‘naviy me’rosi, shogirdlari, ilmiy maktabi bilan baholanadi. Shu bois o‘tgan ustozlarni yod olish-xotira kechalaridan biri yaqinda, institutimizning barpo bo‘lishiga ulkan xissa qo‘shgan, oliygohning birinchi rektori bo‘lgan inson, Respublikamizning ilmiy xazinasida munosib o‘rin tutgan olim, texnika fanlari doktori, professor Farxod Asadullayevich Magrupochning 80 yillik yorqin xotirasiga bag‘ishlandi.

Shogirdlari, yaqinlari va institut rahbariyati tashabbusi bilan o‘tkazilgan bu xotira taddbiri 2024-yil 18-19-yanvar kunlari institutimizning Kimyoviy muddalar texnologiyasi fakultetida (ilmiy-amaliy konferensiya) Respublikamizning soha mutaxassis olimlari, yaqinlari, safdoshlari va shogirdlarini tantanali kutib olish bilan boshlandi.

Tadbirni fakultetimizning muhtasham majlislar zalida yig‘ilganlarga institutimiz - kimyo-texnologiya instituti rektori prof. B.Sh.Usmonov o‘z nutqi bilan ko‘tarinki ruh bag‘ishladi.

TKTI ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori, professor X.L.Pulatov ustoz F.A.Magrupochning salmoqli ilmiy-pedagogik faoliyati bilan tanishtirdi. Agar ustozning mazmunli hayot yo‘liga nazar tashlasak, ular 1944-yil 11-yanvarda ziyolilar oilasida tug‘ilganlar. 1960-yilda Abu Rayxon Beruniy nomidagi “Toshkent Politexnika instituti” ning “Kimyo-texnologiya” fakultetiga o‘qishga kirib, uni 1966-yilda imtiyozli diplom bilan tugatganlar. 1966-yil Toshkent Politexnika institutining “Plastmassalar texnologiyasi” kafedrasiga aspiranturaga kirib, uni 1970-yilda nomzodlik dissertatsiya ishini himoya qilish bilan tugatganlar. Shu yildan boshlab kafedra assistenti, katta o‘qituvchisi, dotsenti, professori, kafedra mudiri lavozimlarida faoliyat yuritganlar.

O‘tgan mehnat faoliyati davomida Farxod Asadullayevich Magrupochning, asosan, gidroksil saqlavchi furan polimerlarining hosil bo‘lish qonuniyatlarini va xossalaririga oid ilmiy ishlar olib borib, 1964-yilda nomzodlik va 1984-yilda doktorlik dissertatsiyasini himoya qilganlar. Ustoz termoreaktiv polimerlar nazariyasi va texnologiyasiga ulkan hissa qo‘shgan olim. Ular 1990-1991-yillarda Oliy va O‘rta maxsus ta’lim vazirligida “Ilmiy tekshirish va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash” boshqarmasi boshlig‘i, yuqori malakali kadrlar - fan nomzodlari va fan doktorlari tayyorlashda 1992-1995-yillarda O‘zbekiston Oliy Attestatsiya Komissiyasi “Kimyo va oziq ovqat texnologiyalari” ekspert komissiyasining ilmiy kotibi, 1995-2000-yillarda komissiya raisi, 1991-1993-yillarda Toshkent kimyo-texnologiya instituti rektori lavozimlarida samarali faoliyat yuritib kelganlar.

Farxod Asadullayevich o‘z pedagogik va



ilmiy yo‘nalishlarida chet el davlatlarda, MDH va Respublikamizda ko‘zga ko‘ringan pedagog-olim, yoshlarning mehribon murabbbiyi bo‘lganlar. Ular



boshchiligidagi tayyorlangan bakalavr va magistrlar hozirgi kunda



Respublikamizdagagi eng zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan “Sho‘rtan gaz kimyo majmuasi”, “UzKorGaz”, “Navoiy Azot” AJ, “Birinchi rezina texnika zavodi” qo‘shma korxonalarida muvaffaqiyat bilan faoliyat ko‘rsatib kelmoqdalar.

Ularning ilmiy tadqiqot natijalarini Respublikamiz va xorijdagi yirik ishlab chiqarish tarmoq korxonalarini, Kemerovadagi “Karbamid” zavodida, Sankt-Peterburg qatlama plastiklar zavodida, Farg‘ona furan birikmalari kimyo zavodida, Toshkent - Lok-bo‘yoq zavodida, SovPlastital qo‘shma korxonasida, Toshkent Tajriba eksperimental zavodida tadbiq qilingan.

Farxod Asadullayevich rahbarligida 3 nafar fan doktori, 20 nafar fan nomzodi

tayyorlangan. Ular 3 ta darslik va 30 dan ortiq o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, 500 dan ortiq ilmiy maqolalar, 50 dan ortiq patent va avtorlik guvohnomalari muallifi hisoblanadilar.

Tadbirda Respublikamizdagi, xorijdagi turli ilmiy tadqiqot institutlaridan, fanlar akademiyasi tadqiqot markazlaridan, yirik ishlab chiqarish korxonalarining ilmiy laboratoriyalardan, ilmiy maktablardan va boshqa oliy o‘quv yurtlaridan ko‘plab mutaxassis va olimlar tashrif buyurib, o‘zlarining ilmiy yutuqlari natijalari, ma‘ruzalari bilan o‘rtoqlashdilar va ustozni-F.A.Magrupochning xotirladilar. Jumladan, institutda bir necha yillar davomida yelkadosh bo‘lib ishlagan O‘ZRF Fa akademigi A.T.Jalilov ustoz ilmiy faoliyatining yorqin tamonlarini gapirib o‘tdilar. Xuddi shunday safdoshlardan yana biri-Qozog‘iston Fa faxriy akademigi TKTI professori G‘.R.Raxmonberdiyev, O‘zMU professori X.U.Akbarovlar ham ustozning ilmiy va tashkilotchilik qobiliyatlarini esga oldilar.

Shuningdek, yurtimizdagi bir necha OTM rektorlari, prorektorlari ham ustozni iliq so‘zlar bilan xotirladilar. Jumladan, Guliston davlat universiteti sobiq rektori professor A.M.Eminov, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti sobiq prorektori - professor B.F.Muhiddinovlar ustozning yaxshi fazilatlarini esladilar va tadbir tashkilotchilariga minnatdorchilik bildirib, bu kabi xotira kechalar an‘anaviy bo‘lishini tilab qoldilar.

Ko‘tarinki ruhda o‘tgani tadbirda yirik ishlab chiqarish korxonalaridan tashrif buyurgan boshqa mexmonlar, shuningdek, ustozning shogirdlari va izdoshlari professorlar M.G.‘Alimuxamedov va R.I.Adilov so‘zga chiqdilar.

Farxod Asadullayevich Magrupochning 1960-yilda Toshkent kimyo-texnologiya institutiga talabalikka qabul qilinganidan to umrlarining so‘nggi kunlarigacha institutda o‘ta samarali faoliyat ko‘rsatib, yuksak vatanparvarligi, o‘z ishiga fidoyiligi, mehnatsevarligi tufayli olyi ta’lim, fan sohalarida, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashda va talaba yoshlarni tarbiyalashda jonbozlik ko‘rsatib kelganlar. Respublikamizning barcha kimyo va kimyo-texnologiya yo‘nalishlarida mutaxassislar tayyorlaydigani institutlarning pedagogik jamoasi o‘rtasida katta hurmatga sazovor bo‘lgan tabarruk ustozning xotiralari qalbimizda abadiy qoladi.

**YUMBPT kafedrasi dotsenti
D.Ya.Yuldashev,
kafedra kat.o‘qit.
M.G.‘Ishmuxamedova,
kafedra mudiri,
prof. R.I.Adilov va
kafedra professori
A.B.Jo‘rayev**

SANOAT VA MAISHIY CHIQINDILAR

Mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, shuningdek, hududlarning sanitariya va ekologik holatini yaxshilash sohasida izchil siyosat amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2017-2018-yillarda qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish tizimining infratuzilmasini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borildi, 13 ta sanitariya jihatidan tozalash davlat unitar korxonalarini hamda ularning tuman va shaharlardagi 172 ta filiali, shuningdek, 9 ta maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni kompleks amalga oshirish klasterlari tashkil etildi. Ko'rilgan chora-tadbirlar aholining deyarli yarmini sanitariya jihatidan tozalash xizmatlari bilan qamrab olinishiga imkon berdi.

Shu bilan birga qishloq aholi punktlarida qattiq maishiy chiqindilarini to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlarning yetarli darajada ta'minlanmaganligi, qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi infratuzilmaning qoniqarsiz holatda ekanligi, mavjud qattiq maishiy chiqindi poligonlarining sanitariya talablari va ekologik me'yordarga muvofiq kelmasligi mazkur sohada kompleksli chora-tadbirlarni qabul qilishni talab etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.04.2019 yildagi "2019 - 2028-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PQ-4291-sonli qarori e'lon qilindi. Ushbu Strategiya quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutadi:

- aholining qattiq maishiy chiqindilarini to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar bilan to'liq qamrab olinishini ta'minlashga yo'naltirilgan sanitariya jihatidan tozalash infratuzilmasini rivojlantirish;

- qattiq maishiy chiqindilarini qayta ishlashning samarali va zamonaviy tizimini yaratish;

- poligonlarga ko'mish uchun yo'naltiriladan qattiq maishiy chiqindilar hajmini kamaytirish, sanitariya va ekologik me'yordalar talablariga muvofiq keladigan zamonaviy qattiq maishiy chiqindi poligonlarini yaratish, shuningdek, mavjud poligonlarni yopish

va rekultivatsiya qilish bo'yicha choratadbirlarni ko'rish;

- sanitariya jihatidan tozalash sohasida narxlar shakllanishini takomillashtirish va

rivojlantirish uchun metodik va axborot ta'minotini yaratish;

ikkinchi bosqich (2022 - 2028-yillar) - qattiq maishiy chiqindilarni saralab yig'ish bo'yicha infratuzilmani rivojlantirish, poligonlarni optimallashtirish, qayta yuklash stansiyalari va chiqindilarini qayta ishlash ob'yeqtlarini qurish, chiqindilar bilan bog'liq ishlarni kompleks amalga oshirish klasterlari faoliyatini takomillashtirish, ularning qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha salohiyatini rivojlantirish, shuningdek, quyidagi maqsadli indikatorlarga erishish:

- aholini qattiq maishiy chiqindilarini to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar bilan qamrab olishni 100 foizga yetkazish;

- hosil bo'ladigan qattiq maishiy chiqindilarning kamida 60 foizini qayta ishlashni ta'minlash;

- o'ziga xos qattiq maishiy chiqindilar (tarkibida simob bo'lgan chiqindilar, avtoshinalar, akkumulyatorlar, ishlatalib bo'lingan moylar, qadoqlash chiqindilar va h.k.) ni qayta ishlash hajmini 25 foizgacha oshirish;

- poligonlarga ko'mish uchun yo'naltiriladan qattiq maishiy chiqindilar hajmini 60 foizgacha kamaytirish;

- barcha poligonlar holatini o'rnatilgan talablarga muvofiqlashtirish, yopilgan poligon yerlarini to'liq rekultivatsiya qilish;

- qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish ob'yeqtlarida muqobil energiya manbalaridan 35 foizgacha foydalanish;

- poligonlar holati monitoringi (yerosti-sizot suvlari va atmosfera havosining holati ustidan nazorat) ni 100 foizgacha ta'minlash.

Ta'kidlash joizki, chiqindilarni boshqarishning ilg'or tajriba va zamonaviy texnologiyalarga asoslangan umumiyo korxona boshqaruvi tizimiga integratsiyalashuvni biznesni muvaffaqiyatli va barqaror rivojlantirishning garovidir. Ushbu yondashuv o'zgaruvchan sharoitlarga va yangi chaqiriqlarga doimiy moslashishni, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilishda eng yaxshi natijalarga erishish uchun mutaxassislar, nazorat qiluvchi organlar va jamoatchilik bilan hamkorlik qilishni talab qiladi.

birinchi bosqich (2019 - 2021-yillar) - qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi qonunchilik bazasini va iqtisodiy tartibotlar mexanizmlarini takomillashtirish, qattiq maishiy chiqindilarini to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishning samarali tashkil etilishini ta'minlash maqsadida sanitariya jihatidan tozalashning moddiy-texnik bazasini va infratuzilmasini rivojlantirish, to'lov intizomin mustahkamlash, qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasida ekologik ta'lim tizimini



ta'riflarni optimallashtirish;

- qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish ob'yeqtardan muqobil energiya manbalarini



sifatida foydalanish.

Strategiya quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi belgilansin:

TKTI Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor X.L.Pulatov va 22-54 guruh talabasi S.B.G'ofurjonova

TKTI xalqaro ta'lim reytinglarida

Xalqaro reytinglar universitetlar va ta'lim muassasalarining global miqyosda o'z o'mini aniqlash va taqqoslash uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu reytinglar turli omillar asosida universitetlarning kuchli va zaif tomonlarini baholaydi. QS (Quacquarelli Symonds), THE (Times Higher Education) va UI GreenMetric universitetlar reytinglari eng nufuzli va keng tarqalgan reytinglar qatoriga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019-yildagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonida respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalarini ro'yxatiga, shu jumladan, O'zbekiston Milliy Universiteti va Samarqand Davlat Universitetini birinchi 500 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalarini ro'yxatiga kiritish to'g'risida vazifalar belgilangan.

Har bir xalqaro reyting agentligi o'z hisoblash kriteriyasi va omillari bo'yicha faoliyatni baholaydi. Jumladan, QS World University Rankings Quacquarelli Symonds tomonidan har yili e'lon qilinadigan reyting bo'lib, u dunyoning eng yaxshi universitetlarini aniqlashga qaratilgan. Reyting quyidagi omillar asosida tuziladi:

- Akademik obro'-e'tibor (30 %): Dunyodagi ilmiy jamoatchilik orasida o'tkaziladigan so'rovlar orqali universitetlarning ilmiy faoliyatini baholanadi;

- Ish beruvchilar obro'-e'tibori (15 %): Ish beruvchilar orasida o'tkaziladigan so'rovlar orqali bitiruvchilarning ishga yaroqliligi va qobiliyati baholanadi;

- Ilmiy maqolalar va nashrlar (20 %): Universitetlarda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarning sifati va soni hisobga olinadi;

- Talaba-fakultet nisbati (20 %): Universitetlarda talabalar va o'qituvchilar sonining nisbati, bu ta'lim sifatini ko'rsatadi;

- Xorijiy talaba va o'qituvchilar (10 %): Universitetdagi xalqaro talabalar va o'qituvchilar soni, bu esa universitetning global ko'lami va xalqaro jozibadorligini ko'rsatadi.

THE World University Rankings Times

Higher Education nashriyoti tomonidan tuziladi va bu reyting dunyoning eng yaxshi universitetlarini baholashda foydalilanadi. THE reyting quyidagi asosiy omillarni o'z ichiga oladi:

- Ta'lim muhiti (29,5 %): Unda talaba-fakultet nisbati, doktorlik darajalarining soni va ta'lim sifatiga ta'sir qiluvchi boshqa ko'rsatkichlar baholanadi;

- Tadqiqotlar (29 %): Tadqiqot faoliyatining hajmi, daromadi va obro'si baholanadi;

- Iqtiboslar (30 %): Universitet olimlarining ilmiy maqolalariga qanchalik ko'pmurojaat qilinishi;

- Xalqaro ko'rinish (7,5 %): Universitetning xalqaro talabalar, o'qituvchilar va xalqaro hamkorlik darajasi;

Toshkent kimyo-texnologiya instituti QS, THE, "UI GreenMetric" reytingida qatnashmoqda va ko'rsatkichlari quyidagicha:

THE World University Ranking - 2024 va Impact Rankings - 2024 da ishtirok etish uchun ma'lumot taqdim etilgan. Times Higher Education agentligi tomonidan e'lon qilingan reytingda nufuzli universitetlar qatorida Toshkent kimyo-texnologiya instituti ham "reporter" maqomiga sazovor bo'lgan. Impact Rankings - 2024 1001+ o'rinni qaydetdi.

Xalqaro ekologik, ya'ni "UI GreenMetric" reytingida Toshkent kimyo-texnologiya instituti 2023-yilda butun dunyo bo'yicha 1183 ta OTMlar ichida umumiyligi 1640 ball to'plab, 1168-o'rinni, O'zbekiston bo'yicha 40-o'rinni egalladi.

Giperhavolalar soni va turlari "Webometrics" reytingida Toshkent kimyo-texnologiya instituti 2024 - yilda butun dunyo bo'yicha 11989 ta OTMlar ichida 15216-o'rinni, O'zbekiston bo'yicha 50-o'rinni egalladi.

Xalqaro akademik obro'-e'tibor (15 %): Toshkent kimyo-texnologiya instituti 2024 - yilda butun dunyo bo'yicha 12000-13000 ta'lim dasturlarini rivojlantirishni qo'llab quvvatlash zarur.

Ta'lim sifatini oshirish: Talaba va o'qituvchilar uchun zamonaviy ta'lim metodlarini joriy etish, ta'lim dasturlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish.

Xalqaro talabalar va o'qituvchilarni jalb qilish: xorijiy talaba va professorlarni institutga jalb qilish uchun stipendiyalar, grantlar va qulay shart-sharoitlar yaratish.

Atrof-muhitga e'tibor qaratish: UI GreenMetric reytingi uchun zarur bo'lgan ekologik barqarorlikka oid chora-tadbirlarni amalga oshirish, kampus infratuzilmasini ekologik talablar asosida rivojlantirish.

Toshkent kimyo-texnologiya instituti xalqaro reytinglarda yuqori o'rinnlarni egallash uchun katta imkoniyatlarga ega, ammo bu yo'lda ko'p mehnat va strategik rejalashtirish talab etiladi. Ilmiy tadqiqotlar, xalqaro hamkorlik, ta'lim sifati va ekologik barqarorlikka e'tibor qaratish orqali institut o'z reytingini yaxshilaydi va xalqaro miqyosda ta'lim eksportini ta'minlashga harakat qiladi.

Xalqaro reytinglar bilan ishlash va axborot-tahlil bo'yimi bosh mutaxassis D.A.Do'smatova



Sanoat daromadi (4 %): Universitetlarning tadqiqot natijalarini amaliyotda qo'llash orqali oladigan daromadlari.

UI GreenMetric World University Ranking Indoneziya universiteti (Universitas Indonesia) tomonidan tuziladi va universitetlarning ekologik barqarorlik va atrof-muhitga oid ko'rsatkichlarni baholashga qaratilgan. Bu reyting quyidagi olti asosiy omilga asoslanadi:

- Infratuzilma (15 %): Universitet kampusining ekologik jihatdan qulayligi, yashil hududlarning mavjudligi;

- Energiya va iqlim o'zgarishi (21 %): Energiya samaradorligi, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish bo'yicha tashabbuslar;

- Chiqindilarni boshqarish (18 %): Chiqindilarni qayta ishslash, chiqindilarni kamaytirish bo'yicha faoliyatlar;

- Suv resurslarini boshqarish (10 %): Suvni tejash va qayta ishlatish choralar;

- Transport (18 %): Kampusdagi ekologik toza transport vositalari va infratuzilmasi;

- Ta'lim va tadqiqot (18 %): Barqaror rivojlanish va ekologik muammolar bo'yicha ta'lim va tadqiqot faoliyati.

Bugungi kunda xalqaro reytinglarda

ILM-FAN TARAQQIYOTIGA HISSA QO'SHGAN OLIMA AYOL

Miloddan avvalgi 460-377-yillarda yashagan yunon shifokori Gippokrat "Menga tanovul qiladigan taomingni ayt, men esa sening qanday kasalga

hamda qayta ishslash texnologiyalari va biotexnologiyalari" ixtisosligi bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan va texnika fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega bo'lgan. 2015-yili esa dots. ilmiy unvoni berilgan. 2018-2020-yillarda u "Enologiya" kafedrasiga mudirlik qilgan.


Barnoxon Otabekovna Abdullayeva o'zining o'quvvetpedagogik faoliyati davomida talabalarga "Oziq-ovqat kimyosi", "Oziq-ovqat mikrobiologiyasi" kabi umumiy fanlardan hamda "Vinochilik texnologiyasi", "Alkogollli va alkogolsiz ichimliklar texnologiyasining nazariy asoslari" kabi mutaxassislik fanlaridan ma'ruzalar o'qib, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini olib borgan. U hammulliflikda 1 ta darslik, 2 ta o'quv qo'llanma va 20 tadan ortiq o'quv-uslubiy qo'llanma nashr qilgan. U hozirda ham

kafedrada mutaxassislik standartini, malaka talablarini, o'qitiladigan fanlar bo'yicha namunaviy va ishchi dasturlar hamda ma'ruza matnlarini yaratishda faol



chalinganingni aytaman", - degan edi. Darhaqiqat, odamlarning hammasini ham tanovul qilayotgan taomiga e'tiborli deb bo'lmaydi. Ammo jamiyatimizda bu jabhada ularni parda ortidan qo'llab turadigan "ko'rinas qahramonlar" bor. Bular oziq-ovqat sohasini muttasil nazorat qilib boradigan, insonlar uchun nima foydayu nima ziyon ekanini uqtirib turadigan mikrobiologlar va kimyo texnologlaridir. Barnoxon Otabekovna Abdullayeva jamiyat uchun ana shunday kerakli mutaxassislarni tarbiyalab berayotgan ustozlardan biridir.

Ustoz olima B.O.Abdulayeva mazkur institutga 1991-yilda o'qishga kirib, 1996-yilda uni tugatgan. Bu oliyohoda u dastavval aspiranturada o'qigan, keyin esa assistent, katta o'qituvchi, dots. bo'lib ishlagan. 2008-yili "Qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash



qatnashib kelmoqda.

Pedagogik faoliyat bilan cheklanmagan Barnoxon Otabekovna Abdullayeva hozirda ham ilmiy izlanishlarini davom ettirmoqda. Olimaning olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalari xorijiy davlatlar hamda O'zbekistondagi jurnal va ilmiy to'plamlarda chop etilgan. U 80 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar muallifi hisoblanadi.

Barnoxon Abdullayeva ko'p yillik samarali mehnati va o'z kasbiga bo'lgan ulkan sadoqati uchun 2014-yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining FAXRIY YORLIG'I bilan mukofotlangan.

**VTSUF XQ masalasi bo'yicha
dekan maslaxatchisi
D.I.Ubaydullayeva**

Dorivor o'simliklardan kompleks foydalanish

Hukumatimizni turli qarorlarida ilmiy texnika yutuqlarini joriy etish orqali ishlab chiqarish hajmini 3 barobar oshirishni ta'minlash darajasini natural hajmda 80% ga yetkazish ko'zda tutilgan. Biz ham hozirda ana shu qaror asosida tadqiqotlar olib bormoqdamiz.

Ma'lumki, O'zbekiston hududida dorivor o'simliklarning 4300 dan ortiq turlari mavjud. Ularning 70 turi farmatsevtika sanoatida faol qo'llanib kelinmoqda. O'bekistonda 101 ta dori vositalarini ishlab chiqaruvchi korxonalar mavjud.

O'zbekistonda dori vositalarining yangi turlarini yaratishda yirik ilmiy markaz - bu akademik S.Yu.Yunusov nomidagi o'simlik moddalari kimyosi ilmiy tadqiqot instituti hisoblanadi. O'simliklardan doriga yaroqli biologik faol qismini ajratib olgach, qolgan qismida sellyuloza qoladi. Hozirda dorivor o'simliklarning qolgan bu qismi ishlatilinmaydi.

Bizning maqsadimiz o'simliklarning qolgan qismi tarkibidan sellyuloza va uning turli strukturaviy modifikatsiyasini olish va undan foydalanish tarmoqlarini aniqlash. Bilamizki farmatsevtika sanoatida dori

vositalariga bog'lovchi va to'ldiruvchi sifatida nano o'lchamli selluloza ishlatilinadi. Masalan, quyidagi dorilarda:



Emkor (10%), Adipin (30%), Kardiomagnil (12%), Lozap (52%), Atoris (20%), Bisoprolol (10%) kabi bir qancha dori vositalarida qo'llaniladi

Dorivor o'simlik vakillari (ola o't, konsolida, amarant, yakorts va citrullus) nano o'lchamli sellyuloza qismi sintez qilinib, inson organizmiga zararsizligi tegishli-maxsus-jonivorlarda farmatsevtlar tomonidan sinab ko'rildi va ularning zararsizligi tasdiqlandi.

Shunday qilib, dorivor o'simliklar poyasidan olingen MKS an'anaviy tarzda ishlatilinib kelinadigan paxta yoki yog'och sellyulozasidan olingen MKS bilan solishtirildi, dorivor o'simliklardan olingen MKS hozirda ishlatib kelinayotgan MKSlerning o'rnini to'liq bosa olishi isbotlandi.

Hozirda iqtidorli 2- va 3-kurs talabalar (A.Tadjibayeva va F.Mirsadiyev) ni jalb qilgan holda *termopsis* va *fizalis* dorivor o'simliklari tarkibidan nano o'lchamli selluloza sintez qilish bo'yicha tadqiqotlar olib bormoqdamiz. Bizning tadqiqotimiz farmatsevtikada qo'llanilib kelinayotgan yog'och va paxta mikrokristallik selluloza o'rniga dorivor o'simliklardan biologik faol qism olingach, qolgan qismidan nano o'lchamli strukturaviy modifikatsiyalangan mikrokristallik selluloza sintez qilib, dorivor o'simliklardan kompleks foydalanishdir.

**"Selluloza va yog'ochsozlik texnologiyasi" kafedrasiga kat. o'qit.
t.f.f.d.PhD D.Sh.Xamdamova**

Dunyoni o'zgartiradigan yashil texnologiyalar

Sayyoramiz tozaligini saqlash uchun yaratilgan shamol elektrostansiyalari va elektromobillar bu yo'nalishda yaratilgan texnologiyalarning bir qismi hisoblanadi. Energiyani toplash, aqlli elektr tarmoqlari va elektr energiyasi ishlab chiqarish texnologiyalari sohasidagi innovatsiyalar manabada nortib, iste'molchigacha bo'lgan butun zanjirni qamrab olgan. Energiyani toplash va saqlash sohasida yangi texnologiyalar Quyosh va shamol energetikasi imkoniyatlarini oshiradi. Ikki manba ham toplangan energiyani saqlash uchun batareyalarga sarflanadigan xarajatlardan aziyat chekmoqda. Bu sohada Insider nashri yaqin 20 yil ichida energetika salohiyatini oshirishi mumkin bo'lgan texnologiyalarni taqdim etdi.

Yoqilg'i elementlari

Kenworth, Toyota va UPS yuk mashinalari ishlab chiqaruvchilari yoqilg'i



elementlari texnologiyalari ustida faol ishlamoqda. Texnologiya dvigatelga vodorod va kislorod aralashmasida ishlashga imkon beradi. Atmosferaga suv bug'i ajralib chiqadi va dvigatel issiqlik tarqatadi.

Vodorod ishlab chiqarishning zamонави усуллари avvalgidek qazilma yoqilg'i larda bog'liq, biroq tez orada ularning o'rmini yangilangan yoqilg'i turlari egallaydi. Yoqilg'ida harakatlanuvchi avtomobillar yuk tashish sohasidagi zamонави yechimlar hisobiga ekologik toza bo'ladi.

Yevropada 2030-yilga borib 50 mingtadan yoqilg'i elementlari ishlab chiqariladi. Bu bozorda Intelligent Energy Britaniya kompaniyasi yetakchi hisoblanadi. Vodorod yoqilg'isida harakatlanuvchi avtomobillar bugungi kunda mavjud. Biroq iste'molchilarini jalb qilish uchun kelajakda vodorod yoqilg'isi qutilarining universalligi, texnologik mukammalligi va raqobatbardoshligini ta'minlash kerak.

Litiy-havoli batareyalar

Litiy-kislorodli deb ham ataluvchi bu akkumulyatorlar ustida elektromobillar paydo bo'lganidan buyon butun dunyoda



qizg'in ish bormoqda. Texnologiyaning ommaviy tarqalishiga ikki narsa to'sqinlik qilmoqda. Bular oldindan aytib bo'lmaydigan qisqa tutashuv va sig'imming tez yo'qolishidir. Hozirda bu muammolar ustida dunyo olimlari ish olib bormoqdalar.

Birinchi avlod aqlli elektr tarmoqlari

Ishonchli va moslashuvchan tarmoqni yaratish uchun birinchi qadam baracha uylarni kompyuterlashtirilgan hisoblagichlar bilan jihozlash hisoblanadi. Ular elektr energiyasini yetkazib beruvchiga energiya sarfi bo'yicha real vaqt rejimida ma'lumot yetkazadi, shu tariqa yetkazib beruvchi tarmoqning

talabiga mos ravishda energiya uzatadi. Ayni vaqtida Buyuk Britaniyada milliy infratuzilmaga texnologiyani kiritish bo'yicha qiyinchiliklar kuzatilmoqda.



AQShda yangi texnologiyalarni kiritish uchun guruh tuzilgan va aqlli tarmoqqa o'tish 2007-yilda boshlangan. Hozircha


jarayon sekin bormoqda, biroq ba'zi kichik shaharlarda sinov loyihalari amalga oshirilgan.

Oqim turbinalari

Suvosti turbinalari to'lqinlar harakatidan energiya oladi. Baliqchilarning qarshiligi va bir nechta baxtsiz hodisalar sababli texnologiya hozircha keng tarqalishga ulgurmagan. So'nggi oyillarda to'lqin energetikasining beshigi hisoblangan Kaliforniyada yangi loyihalarning amalga oshirilishi to'xtatildi. Shunday bo'sa ham, bu sohada ilmiy tadqiqotlar davom etmoqda.

Yaqinda Scotrenewables Tidal Power kompaniyasi Shotlandiya qirg'oqlarida yangi turbinalarni ishga tushirganini ma'lum qildi. Ishlab chiqaruvchining ma'lum qilishicha, bu yirik va kuchli turbina 2 MVt elektroenergiya ishlab chiqara oladi. Yig'iluvchi tayanch elektrostansiyani harakatlanish rejimiga o'tkazishga imkon beradi, uning harakatlanishini va joylashtirishda moslashuvchanligini ta'minlaydi. Bu mahalliy baliqchilarga ham ma'qul keladi.

Fazoviy Quyosh energiyasi



Olimlar va fantastlar 1970 - yildan buyon fazoviy elektrostansiya haqida gapirib keladi. Quyosh panellari va boshqa qurilmalarni orbitaga olib chiqishning qimmatligi bu g'oyani amalga oshirishga xalaqit bermoqda. Bundan tashqari, toplangan energiyani qanday qilib Yerga yo'naltirish ham noma'lum.

Yerusti Quyosh stansiyalari mahalliy elektr tarmoqlariga ulangan, yo'ldoshni esa energiyani samarali uzatish uchun Yer yuzasi bilan elektr simlar yordamida bog'lab bo'lmaydi. Bugungi kunda energiyani masofadan uzatish texnologiyasini yanada takomillashtirish va uni ishlab chiqish ustida ishlamoqda. Mavjud usullarning hech biri ishlab chiqarish miqyosida o'zining samaradorligini isbotlay olmagan.

“LIDER QIZLAR KLUBI”

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2024-yil 10-fevraldag‘i SQ-875-IV sonli qarori bilan tasdiqlangan 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini 2024-yilda amalga oshirish bo‘yicha kompleks choratadbirlar dasturining 14-bandida Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan xotin-qizlarda liderlik ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish borasida tizimli ishlarni yo‘lga qo‘yish vazifasi belgilangan edi.

Ushbu vazifalarni bajarish maqsadida oliy

texnologiya instituti Xotin-qizlar Kenqashi raisi G.Sh.Aripova va barcha xotin-qizlar masalalari bo‘yicha dekan maslahatchilari bilan birgalikda institutda “Lider qizlar klub” faoliyatini tizimli yo‘lga qo‘yish bo‘yicha, ya‘ni Nizomda ko‘rsatilgan maqsad va vazifalarni



nimalardan tashkil topganligi yuzasidan davra suhbati o‘tkazildi.

Klubo o‘z faoliyatini Nizomda ko‘rsatilgandek O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy

kimyo-texnologiya instituti Menejment va professional ta’lim fakultetida ham “Lider qizlar klub” tashkil etilgan.

2024-yil 18-may kuni Toshkent kimyo-texnologiya instituti Menejment va professional ta’lim fakultetida “Lider qizlar klub” klub a’zosi Sodiqova Farangiz tomonidan 2-kurs talaba qizlarimiz o‘rtasida “ERP Dasturida biznesni boshqarish” mavzusida trening bo‘lib o‘tdi.

Treningni o‘tkazishdan ko‘zda tutilgan maqsad qizlarning zamonaviy kasb-hunarlarini puxta egallashi uchun munosib



ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan “Lider qizlar klub” faoliyatini tashkil etish yuzasidan namunaviy Nizom ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu Nizomning maqsadi “Lider qizlar klub” respublika va xalqaro miqyosda katta yutuqlarga erishgan, yetakchilik va notiqlik qobiliyatiga ega bo‘lgan yoshi 18 dan 30 gacha bo‘lgan, jinsi, millati va irqidan qat’iy nazar qizlarni birlashtirish.

2024-yilning 1-may kuni Toshkent kimyo-

Majlisi Senatining 2024-yil 10-fevraldag‘i SQ-875-IV sonli qarori bilan tasdiqlangan “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi, O‘zbekiston Respublikasi yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” gi Qonun,

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Oliy ta’lim muassasasining ichki qarorlari hamda mazkur Nizomga muvoqiq amalga oshirishi ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, Toshkent

sharoitlar yaratish, bandiligidini ta’minlash, ishbilarmonlik qobiliyatini rivojlantirish, ularni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etish, tashabbuslarini rag‘batlantrish, intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishiga ko‘maklashishdir.



*TKTI, MvaPT fakulteti xotin-qizlar bo‘yicha dekan maslaxatchisi
J.A.Aliyeva*

Hay’at raisi:
t.f.d., p.f.d., prof.
B.Sh.Usmonov

Hay’at a’zolari:
k.f.d., prof. X.L.Pulatov,
t.f.d., prof. T.T.Safarov,
Phd., B.N.Boborajabov,
prof. Sh.P.Nurullayev,
s.f.d., prof. O.O.Sirojov

Muharrir:
R.S.Tairova
—
Musahhihlar:
G.U.Qurbanova va
G.X.Maxkamova

Манзил:
100011,
Toshkent shahar,
Navoiy ko‘chasi,
36-uy.

QURILISHBOP SELLYULOZA OLISH

n ko‘proq miqdorda olib, qurilish sohasida
qo‘llashni taklif etmoqchimiz.

Paxta linti sellyulozasidan atsetatsellyuloza olish

Bugungi kunda O‘zbekistonga
keltirilayotgan xomashyolarni lokalizatsiya
qilish bo‘yicha ko‘plab chora-tadbirlar
amalga oshirib borilmoqda. Jumladan,

== 10 ===== KIMYOGAR ===== 2024-yil, may ==

XIZMAT SAFARI TAASSUROTLARI

2024-yil 4-9-mart kunlari Toshkent
kimyo-texnologiya instituti dotsentlari
G.Sh.Aripova va G.N.Tavaldiyeva

***Turkiyaning Tekirdag‘ Namik Kemal
universitetida stajirovka
o‘tab qaytgan TKI jamoasi***

Tekirdag‘ Namik Kemal universiteti
Turkiyaning nufuzli oliy ta’lim
muassasalaridan biri bo‘lib, unda 11 ta fixiy

== 12 ===== KIMYOGAR ===== 2024-yil, may ==

“HAKATON” nima?

Hakaton-bir sutkadan bir haftagacha
davom etadigan juda “g‘alati” hodisa.

Hay'at raisi:
t.f.d., p.f.d., prof.
B.Sh.Usmonov

Hay'at a'zolari:
k.f.d., prof. X.L.Pulatov,
t.f.d., prof. T.T.Safarov,
Phd., B.N.Boborajabov,
prof. Sh.P.Nurullayev,
s.f.d., prof. O.O.Sirojov

Muharrir:
R.S.Toirova
—
Musahhihlar:
G.U.Qurbanova va
G.X.Maxkamova

Манзил:
100011,
Toshkent shahar,
Navoiy ko‘chasi,
36-uy.